



LEGAL STATUS OF FARMS

Akmal Ismatullaevich Nabiraev

Senior Prosecutor

General Prosecutor's Office Department

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Farmer, farm, law, law, land.

Abstract: This article analyzes and discusses the legal status of farms.

Received: 19.02.24

Accepted: 21.02.24

Published: 23.02.24

FERMER XO'JALIKLARINING HUQUQIY MAQOMI

Akmal Ismatullayevich Nabirayev

katta prokuror

Bosh prokuratura Boshqarma

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Fermer, fermer xo'jaligi, huquq, qonun, yer.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomi mavzusi tahlil va muhokama etilgan.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ

Акмал Исмадуллаевич Набираев

старший прокурор

Управление Генеральной прокуратуры

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фермер, ферма, закон, закон, земля.

Аннотация: В данной статье анализируется и обсуждается правовой статус фермерских хозяйств.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi, qolaversa uning asosiy ishlab chiqaruvchi subyekti –

fermer xo‘jaliklari faoliyatining barqaror iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotida erkin bozor munosabatlarining qaror topishida agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning ham o‘rni beqiyos bo‘lib, uzoq yillik amaliy tajribalar qishloq xo‘jaligida ham erkin bozor munosabatlarini qaror toptirish sohani rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Fermer xo‘jaliklari faoliyatining mohiyati davlatlarda turlicha bo‘lib, bu mamlakat qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanganlik darajasi, yerdan foydalanish va unga egalik qilish tartiblarining qaror topganligi, shu bilan birga davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik xususiyati va boshqa bir qator omillarga bog‘liqdir.

Fermer xo‘jaligi, bu ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Milliy qonunchiligimizda fermer xo‘jaliklari haqidagi dastlabki qoidalar 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan “Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonunda (*hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan-01.07.1998*) nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, dastlab qishloq xo‘jaligida o‘zi egalik qiladigan yer uchastkasidan foydalangan holda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan shug‘ullangan dehqon xo‘jaliklari sifatida tashkil etilgan. Keyinchalik qonun normalarida dehqon va fermer xo‘jaliklari mohiyat jihatidan alohida subyektlar sifatida tashkil huquqiy shakllarga ega bo‘lgan.

Davlat mulkini xususiylashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yer munosabatlarini isloh qilishga alohida e‘tibor qaratildi. Qishloq xo‘jaligida boshlangan islohotlar va xususiylashtirish jarayonini muvaffaqiyatli davom ettirilishida 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonun (*2004-yil 26-avgustda yangi tahriri qabul qilingan*) ning qabul qilinishi agrar islohotlarni huquqiy negizi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fermer xo‘jaligini tashkil etish, ularning faoliyati, ularni qayta tashkil etish va tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar mazkur Qonun va boshqa bir qator qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-son Farmonida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, Farmonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qishloqlarda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosiy masala etib belgilanadi.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin. Mazkur turdagi fermer xo'jaliklari faoliyati ko'lamidan kelib chiqib ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari sifatida e'tirof etiladi.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etilishi mumkin. Belgilangan tartibga ko'ra, fermer xo'jaliklari ustav asosida faoliyat ko'rsatishi belgilangan bo'lib, ularning namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fermer xo'jaliklari faoliyat yuritishi uchun yer uchastkalari xo'jaliklarning muassisi hisoblangan fermerlarga Yer kodeksi, Fermer xo'jaligi to'g'risidagi Qonun va Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Yer kodeksida fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari ochiq tanlov asosida, o'ttiz yildan ellik yilgacha bo'lgan muddatga hamda zaxira yerlari yoki qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan ajratilishi nazarda tutilgan.

Prezidentimizning 2021 yil 8 iyundagi 6243-sonli farmoni bilan jarayon to'liq isloh qilinib, yer berish, sotishga oid aniq tartib va qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar esa ochiq elektron tanlov yakunlariga ko'ra, faqat ijara huquqi asosida beriladi.

Hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar sabab qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarning, xususan mahsulot tayyorlashda zamonaviy ishlab chiqarish an'analari ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining soni va ularning faoliyat ko'lami tobora kengayib bormoqda. Statistika qo'mitasi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Respublikamizda 87,6 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 603 ming band bo'lgan aholi, shu jumladan 52.4 mingdan ortiq yollanma ishchilar mehnat faoliyatini olib bormoqda. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining 2148,1 ming gektari fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi, bu bitta fermer xo'jaligiga o'rtacha 24.5 gektarga to'g'ri kelishini anglatadi.

Asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo'lgan prokuratura organlarining qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishga qaratilgan qonunlar va ular asosida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning og'ishmay ijro etilishini ta'minlash, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat manfaatlarini himoya qilishdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi PF-3406-son Farmoni bilan prokuratura organlarining qishloq xo'jaligi sohasidagi vazifalari yanada aniq belgilab berildi

Farmonga muvofiq, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar prokuraturalari tuzilmalarida qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limlari tashkil qilingan hamda ularga 48 ta qo'shimcha shtat birligi, shu jumladan markaziy mahkama uchun 3 ta shtat birligi ajratib berilgan.

Mazkur bo'limlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda hukumat qarorlarida bayon etilgan talab va qoidalar o'z vaqtida, to'liq ijro etilishini nazorat qilish;

asosiy qishloq xo'jalik ekinlari (paxta va g'alla) ekiladigan maydonlar monitoringini muntazam o'tkazib turish, ekin maydonlari mahsulot ishlab chiqaruvchilar — fermer va shirkat xo'jaliklari, tuman va viloyatlar tomonidan qabul qilingan hamda tasdiqlangan shartnoma majburiyatlariga muvofiqligini tanlab tekshirishlar o'tkazish;

fermer va dehqon xo'jaliklariga yer ajratish borasida qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartib buzilishining oldini olish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda mas'ul shaxslar tomonidan xizmat mavqeyi suiiste'mol qilinishiga, qarindosh-urug'chilik va oshna-og'aynigarchilik munosabatlaridan foydalanish hollariga yo'l qo'ymaslik;

yerlardan qat'iy ravishda maqsadli foydalanish, sug'oriladigan ekin maydonlari muomaladan chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

yerlardan maqsadli va asrab-avaylab foydalanishni, ularning unumdorligi saqlanishi hamda ekologiya normalariga rioya etilishini ta'minlab kelayotgan fermer hamda dehqon xo'jaliklarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

suv resurslaridan isrofgarchilik bilan foydalanish, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallarini o'g'irlab talon-toraj qilish, gidrotexnika, melioratsiya inshootlari hamda qishloq xo'jalik texnikasini ishlatishda xo'jasizlik faktlarining oldini olish choralari ko'rish;

qishloq xo'jaligi sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan qonunchilikni keng ko'lamda tushuntirish yo'li bilan shunday huquqbuzarliklarning oldini olish.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga berilgan yer maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha hududlarga respublika ishchi guruhlari birlashtirilgan bo'lib, Bosh prokuraturaga mazkur ishchi guruhlar va hududiy ishchi guruhlar faoliyati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasi

bo'yicha muntazam axborot berib borilishini ta'minlash va yer uchastkalarini maqbullashtirish ishlarini olib borish.

Bosh prokuratura tomonidan agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan ham qat'iy nazorat o'rnatilgan.

Mazkur yo'nalishda nazoratni ta'minlashda asosiy e'tibor paxta-to'qimachilik va g'allachilik klasterlari, dehqon, fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining buzilgan huquqlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni ta'minlashga qaratilmoqda. Xususan o'tgan 2023-yilda dehqon va fermer xo'jaliklariga 26 milliard so'mdan ortiq kredit mablag'i, 21 milliard so'mlik naqd pul mablag'i ajratilishida amaliy yordam ko'rsatilgan.

Shuningdek, so'nggi yillarda joylarda fermer xo'jaliklariga ijara asosida berilgan yer uchastkalarini noqonuniy tarzda sotish holatlari ko'payib borayotganligi ta'kidlab o'tish lozim. Ushbu turdagi jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlashda, ularga qonunga muvofiq tegishli choralar ko'rishda, bu kabi jinoyatlarning oldi olinishida prokuratura organlari muhim o'ringa ekanligi qayd etib o'tish joiz.

Ma'lumot uchun, Samarqand viloyati Urgut tumanida fuqaro tomonidan otasi rahbarligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaligiga qarashli yerni 14 ming dollarga sotishga urinayotganda prokuratura va DXX xodimlari tomonidan protsessual tartibda ushlanib, unga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Shuningdek, viloyatning Nurobod tumanida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida fermer xo'jaligi rahbari tomonidan xo'jalikning **3 gektar yer maydonini** sotilishi oldi olinib, xo'jalik rahbari oldindan **35 ming dollarni olgan** vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Bugungi kunda Qonunlarimiz zamon talablaridan kelib chiqqan holda ilg'or xorij amaliyotini qo'llagan holda huquq tizimimizga moslashtirib borilmoqda. Jumladan, turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi hamda yangi-yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan qonunchilikda ham o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'lmoqda.

2023-yilning 12-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-205-son Farmonida qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, paxta-to'qimachilik klasterlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, tarmoqda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish vazifasi qo'yilgan.

Farmonda fermer xo'jaliklariga o'z majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan yer ijarasi, fyuchers va kredit shartnomalarida nazarda tutilgan majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulki bilan javob berishi tartibi belgilandi. Masalan, fermer xo'jaligining boshlig'iga fermer xo'jaligining

mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgarlik yuklatiladigan bo'ldi.

XULOSA

Shu bilan birga savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari zimmasiga fermer xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlarining mineral o'g'it va yoqilg'i-moylash mahsulotlari bo'yicha o'tkaziladigan birja savdolarida ishtirok etishiga ko'maklashsin vazifasi yuklatildi.

Hukumatimiz tomonidan fermer xo'jaliklari faoliyatini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida 2023-yil 1-apreldan 2024-yil 1-mayga qadar eksperiment tariqasida respublika budgetidan paxta va (yoki) g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga ularning ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya qilinganda qaytarib berish tartibi joriy etildi:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan har bir gektar yer uchun oyiga kamida bir nafar ishchining bandligi ta'minlanganda;

har bir nafar ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromad mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda belgilanganda;

paxta va (yoki) g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligiga o'tgan yil yakuni bo'yicha Soliq kodeksining 57-moddasi talablariga javob berganda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Fermer xo'jaligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.:26.08.2004 yildagi 662-II-son, 3-moddasi
2. "Fermer xo'jaligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.:26.08.2004 yildagi 662-II-son, 5-moddasi
3. "2004 — 2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.: 30.10.2003 yildagi PQ-476-son.
4. <https://uza.uz/posts/555760>
5. <https://data.egov.uz/data/61111305db32b99538e08232>
6. "Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.: 11.03.2004 yildagi PF-3406
7. <https://uza.uz/posts/563595>
8. Gafurov, R., & Nodirov, D. (2020). The concept, importance and tasks of prosecutorial control over the implementation of legislation in the field of ecology and environmental protection,

as well as in the agricultural and food sectors. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2795-2799.

9. Gafurov, R., & Nodirov, D. (2020). Issues of improving the system of the prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan based on the tasks of ensuring legality in the field of environmental protection and agriculture. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 982-989.

10. НОДИРОВ, Д. (2020). ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ. *ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ*, 1(4), 44-49.

11. Nodirov, D. (2020). Ensuring the supremacy of law in the development of agriculture in Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(8), 1414-1418.

12. Нодиров, Д., & Ибраймов, А. (2020). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИСТАНЦИОННЫХ КУРСОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ, ОРГАНИЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДИАГНОСТИКИ. *InterConf*.

13. Ikromovich, N. D. (2020). The legal basis for assigning responsibilities to the prosecutor's office in ensuring control over the implementation of legislation in the agricultural sector in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1058-1064.